

IKKI ELNING BIR ADIBI MAQSUD SHAYXZODA.

*Toshkent davlat transport universitetini Avtomobil yo'llari muhandisligi
fakulteti YMAL-6 guruhi talabasi
Elmurodov Hamidillo Otabek o'g'li
Elmurodovhamidillo@gmail.com*

Annotatsiya: Maqsud Ma'sumbek o'g'li Shayxzoda zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri, ulkan shoir, barkamol dramaturg, ustoz muallim, yetuk olim, otashnafas publisist, mohir tarjimon o'zining butun hayoti va ijodi bilan xalqimiz orasida mashhur bo'lgan ulug'vor, ammo, g'oyat kamtarin inson siymosi tasavvurimizda jonlanadi. Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ijodiy yo'li va boy merosi bilan alohida o'rin egallagan ijodkorlardan biridir. Ozarbayjonning Oqtosh shahrida ziyoli oilada dunyoga kelib, taqdir taqozosi bilan uning hayoti O'zbekiston bilan bog'lanadi. Ushbu maqolada, serqirra ijodkor, ikki xalqning chinakam dilbandi bo'lgan va ozar va o'zbek adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor Maqsud Shayxzoda faoliyati va ijodi haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, o'zbek adabiyoti, otashnafas publisist, tarjima asarlari, barkamol dramaturg, vatanparvarlik va birdamlik tuyg'ulari, ta'lim, mohir tarjimon, yetuk olim, boy merosi, ziyoli oila, taqdir taqozosi.

Maqsud Shayxzoda 1908-yil 7-noyabrda Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Uning otasi Ma'sumbek nafaqat shifokor, balki ilm-fan va adabiyotga ham chuqur mehr qo'ygan kishi bo'lib, oilada ilmiy va badiiy muhit shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Shoirning onasi Fotimaxonim ham Tiflisdagi xotin-qizlar gimnaziyasini tugatib, zamonaviy ilm-fan asoslarini egallagan, turmush o'rtog'i singari o'tkan asr boshlarida shakllangan Ozarbayjon xotin-qizlarining peshqadami vakilasi edi. Adibning



aytishicha ota-onasi Tiflisda o‘qib yurgan paytlarida turmush qurishgan so‘ngra, Oqtoshga ko‘chib kelgan. Ma’sumbekning uyi o‘sha zamonda Oqtosh shahrining eng ilg‘or ziyoililari uning uyiga yig‘ilib, san’at, adabiyot, siyosat va falsafadan munozara va mulohaza qilishardi. Bo‘lajak shoir yosh Maqsud bu adabiy munozaralardan ko‘p bahra topib, shoh asarlarning jozibali ohangi va sehri ostida yashadi. Yosh Shayxzoda oilasidagi bu ma’rifatli muhit ta’sirida shakllandi, Pushkin, Lermontov, Shekspir, Balzak, Firdavsiy va Navoiy asarlarini o‘qib ulg‘aydi. U yoshlik yillarda ilm olishga ishtiyoqi baland bo‘lib, Boku Oliy pedagogika institutida tahsil oldi. Uning mehnat faoliyati esa Dog‘istonda boshlanib, u yerda muallimlik, jurnalistika va adabiy faoliyat bilan shug‘illandi. Lekin uning taqdiri o‘zbek adabiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi taqdir yozuvida bor edi. Ammo Shayxzodaning hayoti osoyishta, bir tekisda kechmadi. 19 yoshligida boshiga bir qancha tashvishlar tusha boshlaydi. 1927-yilda millatchilikda ayblanib, qamaldi va 3 yilga Toshkentga surgun jazosiga hukm etiladi.

Qardosh yurt ko‘ksida dunyoga kelgan,

O‘chmas iz qoldirdi xalqim qalbida.

O‘zbegin ko‘nglini vatan deb bilgan,

Ikki yurt dilbandi Maqsud Shayxzoda.

Qismatning qorong‘u ko‘chalarida,

She’riyat uchquni diliqa ko‘chdi.

Vatan ozodlikda birlashsin deya,

Yosh shoir o‘zining tinchidan kechdi.

Maqsud Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, tez orada o‘zbek adabiy hayotining faol ishtirokchisiga aylandi. U dastlab turli gazeta va jurnallarda



ishladi, keyinchalik esa Fanlar Qo'mitasining Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritdi. U adabiyotga yangicha nazar bilan qarar, zamonaviy she'riyatga o'ziga xos ovoz olib kirgan ijodkor edi. Shayxzoda o'zbek mumtoz adabiyotini chuqur o'rganib, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiy merosini ilmiy jihatdan tadqiq etdi. Uning ilmiy ishlari filologiya sohasida ham muhim o'rin tutadi. 1935-1938 yillarda Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida ishladi. 1938-yildan umrining so'ngiga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining "O'zbek mumtoz adabiyoti" kafedrasida dotsent lavozimida xizmat qilib, malakali kadrlar yetishtirishga o'z hissasini qo'shdi.

Nizomiy vatanida tug'ilgan Shayxzoda falakning gardishi bilan o'zbek tuprog'iga kelib qolib, hayotining baxtli, shu bilan birga fojeali kunlarini shu yerda yashadi. U yurtimizda shoir, dramaturg, tarjimon, pedagog sifatida shakllanib, o'zbek adabiyoti, adabiyotshunosligiga va tarjima maktabi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi.

1930-1940-yillar mobaynida Maqsud Shayxzodaning birin-ketin "Loyiq soqchi" (1931), "O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934) va "Jumhuriyat" (1935), "Yangi devon" (1938) asarlari adabiyotga o'ziga xos ovozga ega bo'lgan shoir kirib kelayotganidan darak berdi. Shoирning ijodi mustahkam milliy ruh, Vatanga bo'lgan sadoqat va insoniy qadriyatlarga chuqur hurmat bilan yo'g'rilgan edi.

1953-yillarda Maqsud Shayxzodani ham Cho'lponlar qatori bir vaqtida hibsga tortiladi. "Jaloliddin" dramasini yaratgani, "Alpomish" dostoniga ijobiy so'z boshi yozgani uchun partiya tashkiloti tomonidan Milchakovlar guruhi unga qarshi turli fitnalar uyushtira boshlaydilar. Uni tarixiy shaxslarni millat qahramoni darajasiga ko'tarishda aybladilar. Maqsud Shayxzoda 25 yilga qamoq jazosiga hukm qilinadi. Shoir Itruskdagagi siyosiy mahbuslar lageriga jo'natiladi. Qamalganiga ikki yil bo'lganida Stalin vafot etadi va Maqsud Shayxzodaga ham

ozodlikning eshigi ochiladi. Shoирга istasang, tug‘ilgan yurtingga, Ozarbayjonga ketishing mumkin deyishadi. Ammo Maqsud Shayxzoda yo‘q, yo‘q o‘z hayotimni bag‘ishlaganim, butun ijodimni yaratgan shahrim, asl vatanimday bo‘lib qolgan shahrim, Toshkentga ketaman deydi va shu tariqa 1955-yili ko‘pgina fidoyi ziyolilarimiz qatori Shayxzoda ham oqlanib chiqdi. Lekin 2 yillik qamoqxonasi azoblari natijasida shoирning sog‘ligi juda yomonlashib qolgan edi. Ana shunday og‘ir sharoit va xastalikda ham hayotidan sira nolimay, umrining oxirigacha ijod qilishdan to‘xtamadi.

Maqsud Shayxzodaga o‘qilgan dahshatli ayblovlari hozir ham O‘zbekiston davlat milliy arxivida saqlanmoqda. Sho‘rolarning xalqlarni bo‘lib tashlab hukmronlik qilish bilan birga ziyolilarni ham bir-biriga qarshi ko‘rsatmalar berishga undashidan maqsad kelajak avlod qalbida ham shubha uyg‘otish edi.

Maqsud Shayxzoda o‘zining butun ijod namunalari yaratilgan shaharga nisbatan 1958-yilda o‘zining mashhur “Toshkentnoma” degan bir ulkan doston yaratdi. Ushbu doston qadimiyligi va ayni paytda zamonaviy Toshkent shahriga bag‘ishlangan bo‘lib, shoирning o‘z ona yurti bo‘lmish Ozarbayjondan uzoqda yashasa-da, o‘zbek xalqi madaniyatiga qanchalik chuqur singib ketganini ko‘rsatadi. U nafaqat lirik shoир, balki dramaturg sifatida ham yuksak iste’dod sohibi bo‘lib, 1960-yilda yozgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida buyuk o‘zbek olimi va ma’rifatparvar hukmdorining yorqin obrazini yaratdi.

Shayxzoda tarjimon sifatida ham katta ishlarni amalga oshirgan. U Pushkinning “Mis chavandoz”, Lermontovning “Kavkaz asiri”, Mayakovskiyning “Juda soz” dostonlari va ko‘plab she’rlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Bundan tashqari, Shekspirning “Hamlet”, “Romeo va Julyetta” tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she’riy asarlarini, shuningdek, Ozarbayjon shoirlari ijodini ham tarjima qilgan.



O'ZBEKISTON

O'zbekiston - onam mening,

Yuragimsan, jonim mening.

Tog'laringda osmon bilan

Ko'z urishar ko'zim mening.

O'zbekiston – elim mening,

Mehring quyosh – kulim mening.

Sen bahorim, sen baham,

Sen bahorim – gulim mening.

Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda vafot etdi va Toshkentning Farobiy qabristoniga dafn etildi. U Ozarbayjon tuprog'ida tug'ilgan bo'lsa-da, taqdir taqozosi bilan o'zbek diyoriga kelib, bu yurtda butun borlig'i bilan ijod qilib, xalq e'tirofiga sazovor bo'ldi. Uning nomi o'zbek adabiyoti tarixida abadiy saqlanib qoladi. Shahzoda ijodi eng gullagan paytda, shiraga to'lgan vaqtida bu olamdan ketdi. Boshidan qanchadan-qancha musibatli kunlar o'tgan bo'lmasin, u hech zorlanmagan. Uning iymon-e'tiqodi, dunyoqarashi, yuqoridagi misralarda teran bayon qilingan. U hech qachon alamzadalik bilan yashamadi. Aksincha, unga xiyonat qilgan, uni azob uqubatlarga, jiddiy xastaliklarga duchor qilganlar haqida hech qayerda, hech nima demagan. Shayxzoda o'zining insoniy fazilatlariga sodiq qolib, doimo xayrixohlik va balandlik xislatlari bilan yuksalib yashadi.

Xulosa qilib aytganda: Maqsud Shayxzoda nafaqat iste'dodli shoir va dramaturg, balki milliy adabiyotimizning yirik namoyandalaridan biri sifatida tan olinadi. Shunday ijodkorlar bo'ladiki, ular vafotlaridan keyin ham nafaqat milliy



adabiyot xazinasidan joy olgan asarlari, balki ajoyib insoniy fazilatlari bilan ham xalq xotirasida abadiy yashaydilar. Shayxzoda ikki xalq she'riyati cho'qqisini egallagan shoirlardandir. O'zbek xalqi doimo shunday ulug' ijodkori borligidan faxrlanadi.

Oybek Shayxzoda she'riyatiga nisbatan "Uning she'rlari rang-barang va xilma-xil" deya ta'rif beradi. Hamid Olimjon esa uni "Faylasuf shoir" deya e'zozlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi – O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent, O'zbekiston Milliy Ensiklopediya bosh tahririyyati.
2. M. Qosimov. "O'zbek adabiyoti tarixi", Toshkent, Fan nashriyoti, 1985.
3. S. Umarov. "O'zbek she'riyatida vatanparvarlik mavzusi", Toshkent, 2001.
4. Shayxzodaning adabiy va tarjima asarlari – O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi fondlaridan olingan materiallar.